

## OQ, GULIGAZ VA QAMBAR QORAKO'L QO'ZILARI XUSUSIYATLARI VA KLASSLARINING TA'RIFI

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va*

*biotexnolgiyalar universitetining Toshkent filiali*

*Zooingeneriya va ipakchilik kafedrasi katta o'qituvchi*

***Mamadiyev Omon Ababakirovich***

*Zooingeneriya va ipakchilik kafedrasi assistenti*

***Sharifov Davlat Ma'ruf o'g'li***

*Zooingeneriya va ipakchilik kafedrasi assistenti*

***Ko'charov Sirojiddin Yo'ldosh o'g'li***

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda qo'ylarining yaratilish tarixi, ularning zavod tiplarining barpo etilishida seleksion usullarida foydalanish yo'llari, ularning qorako'lchilik xo'jaliklarida qo'llaniladigan usullarni tadbiq etilish jarayonlari haqida so'z yuritilgan va ularni ishlab chiqarishda joriy etilganligidagi natijalari haqida ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Naslchilik zavodlari, naslchilik ishlarini tashkil qilish, nasl-reprodukтор xo'jaliklar, naslchilik ishini tashkil qilish, tovar ferma va xo'jaliklar, zavod podasi, tovar podasi, nasldor qo'ylar, elita sovliq va tusoqlar, duragay qorako'l qo'ylar

**Naslchilik zavodlarida naslchilik ishlarini tashkil qilish.**

Guligaz rangi oq va jigarrang jun-tolalarining aralashuvi natijasida hosil bo'ladi va 3 tusga bo'linadi: och, o'rta va to'q.

Guligaz qo'zilar rangining och-to'qligi oq va jigarrang jun -tolalarining nisbiy miqdoriga, jigarrang tolalar rangining to'qligiga bog'liq. Guligaz qo'zilar tiplarga bo'linmaydi.

**Naslchilik zavodlaridagi qorako'l qo'ylari uch qismdan iborat bo'ladi va alohida fermalarga joylashtiriladi:**

a) zavod podasi

b) nasl-reprodukтор (nusxa olib ko‘paytiradigan) suruvlar.

v) tovar podasi.

**Zavod podasi quyidagi gruppalardan iborat:**

a) tanlangan elita, elita va I klass, dastlabki ikki tug‘ishdan ikkita elita yoki birinchi klass qo‘zi bergen ona qo‘ylar;

b) elita to‘qlilar, tanlangan elita va nasl – reproduktor qo‘y suruvlari;

v) birinchi klass to‘qlilar to‘dasiga zavod tipidagi ona qo‘ylardan olingan maqsadga muvofiq tipga ega yosh hayvonlar

**Naslchilik zavodlaridagi qo‘chqorlar to‘rt gruppadan iborat bo‘ladi:**

a) liniyalarga asos solgan qo‘chqorlar, shuningdek, nasli bo‘yicha tekshirilgan, zavod podasi qatoridagi ota – onalardan olingan qo‘chqorlardan;

b) nasl sifatini tekshirish uchun ajratilgan, zavod tipidagi ota – onalardan olingan, tug‘ilgan vaqtida elitaga kiritilgan va nasldor qo‘chqorlar safini to‘ldirish uchun o‘stirilayotgan yosh qo‘chqorlardan;

v) nasl – reproduktor xo‘jaliklarida foydalanish va ko‘paytirish uchun ajratilgan, nasl sifati Yuqori bo‘lgan qo‘chqorlardan;

g) sun’niy qochirish davrida kuyikkan sovliqlarni iskab topuvchi qo‘chqorlar va sun’iy urug‘lantirishda urug‘lanmay qolgan sovliqlarni qochirish uchun belgilangan qo‘chqorlardan.

Zavod tipidagi qo‘ylarning soni eng ko‘pida 18 – 20 ming boshdan, elita va tanlangan qo‘ylarning soni esa 2,5 – 3,0 ming boshdan ortiq bo‘lmasligi lozim. Zavod podasidagi qo‘ylar safini to‘ldirish faqat zavod tipidagi qo‘ylardan olingan va zavod talabini yaxshi qondira oladigan qo‘ylar hisobigagina amalga oshiriladi.

**Zavod podasini tuzishning birinchi davrida qo‘yidagi to‘dalar kiradi:**

a) tug‘ilgan vaqtida elitaga va I klassga kiritilgan, dastlabki ikki tug‘ishida 1–2 elita qo‘zi yoki birinchi klass qo‘zilar bergen ona qo‘ylar;

b) nasldor qo‘chqor va sovliqdan olingan, elita va I klass to‘qlilar;

v) nasl sifati tekshirilgan va yaxshilovchi deb tanlangan nasldor qo‘chqorlar;

g) naslni yaxshilovchi va nasldor sovliqlardan olingan qo‘chqorlar

qatorini to‘ldirish uchun qoldirilgan elita va I klass qo‘chqorlar;

**d)** qochmay qolgan sovliqlarni qochirish uchun foydalanishga ajratilgan nasldor qo‘chqorlar va sovliqlarni iskab topuvchi qo‘chqorlar.

Zavodning reproduktor podasi elita va birinchi klass xar hil gul o‘lchamiga va har xil tusiga ega qo‘ylar to‘dasidan iborat bo‘ladi. Har bir zavod o‘zi uchun urchitishga ajratgan zavod tipidan boshqacha bo‘lgan qo‘ylarni nasldor qo‘ylar qatoridan chiqaradi va tovar fermasiga o‘tkazadi.

Nasldor qo‘ylardan gul o‘lchamiga, rangiga, jun konstitutsiya tipiga, yoshiga, klasslari va kelib chiqishiga qarab bir tekis suruvsalar tashkil qilinadi. Nasldor qo‘ylar fermasida qo‘ylar soni 8 – 10 ming boshdan oshmasligi kerak. Zavodning nasldor qo‘ylari shu xo‘jalikda naslchilik ishi natijalarini tekshirish uchun asosiy baza hisoblanadi.

Zavodning tovar beruvchi podasi har xil klassli barra tipi jihatdan turlicha bo‘lgan va zavodning nasldor qo‘ylari qatoridan yaroqsiz qilib chiqarilgan qo‘ylar suruvidan tashkil topadi. Bu xil qo‘ylar podasi qorako‘lchilik xo‘jaliklaridagi singari qilib tuziladi va barra tiplariga, klasslariga, konstitutsiyasi va yoshga qarab suruvlarga ajratiladi.

Buxoro sur qo‘ylarini urchitishda naslchilik zavodlarining vazifasi shu qo‘ylarning qimmatli sur rangini yaxshilash uchun nasliy kuchini mustahkamlash va bu xususiyatni takomillashtirishdir. Buxoro sur qo‘ylarini urchitishda rangiga ko‘ra bir xil va har xil belgilariga qarab juftlanadi.

***Naslchilik zavodlaridagi har xil rang qorako‘l qo‘ylari bilan naslchilik ishi qo‘yidagicha yuritiladi:***

**a)** barcha nasldor erkak qo‘zi va urg‘ochi quzilar 2 kunlik bo‘lguncha individual bonitirovka qilinadi;

**b)** qo‘zilari va teri sifatini individual hisoblab borish, zavod tipidagi va nasldor qo‘zilarining tirik vazni va zavod podasidan olingan jun mahsuloti hisobga olinadi;

**v)** qo‘chqorlar nasl sifati jihatdan tekshiriladi va liniyalar bo‘yicha urchitiladi;

g) nasldor qo‘chqorlar bahor va kuzgi qirqim oldidan, sovliqlar esa sun’iy qochirish oldidan qayta ko‘riladi;

d) xo‘jalikda foydalaniladigan har bir qo‘chqor nasl berishi jihatdan hisobga olinadi;

e) nasl uchun qoldirilgan barcha nasldor erkak va urg‘ochi qo‘zilar 10 – 15 kunligida qaytadan yakka – yakka ko‘riladi va 4 oyligida, ya’ni onadan ajratishda qayta ko‘riladi.

j) nasldor qo‘chqorlar 1,5 yoshida, ya’ni kuzgi qirqim oldida bonitirovka qilinadi.

z) zavod podasidan hamma sovliqlarga nasldor qo‘chqorlar yakka – yakka tayinlanadi, nasldor sovliqlarga ega gruppalariga qarab qo‘chqor qo‘yiladi va har bir ona qo‘y va qo‘chqordan olingan qo‘zilar yakka hisobga olinadi;

i) qo‘ylarni yil bo‘yi yaxshi boqib, yaxshi asrash bilan ulardan sog‘lom va Yuqori mahsulotli qo‘zilar olish choralari ko‘riladi.

Naslchilik zavodlaridagi voyaga etgan hamma qo‘ylarni ko‘rikdan o‘tkazib, sifatiga, mahsulorligiga qarab tegishli zavod otarlariga bo‘lish lozim. Shu bilan birga, hamma elita va I klass sovliq hamda qo‘chqorlarga yangi zavod isirg‘alari tashqi, qo‘chqorlarga esa shoxiga yoki lunjiga tamg‘a solish kerak.

Naslchilik zavodlarining asosiy vazifasi qimmatbaho nasldor qo‘ylar o‘stirib etkazish sohasidagi planni muvaffaqiyatli ravishda bajarishdan iboratdir. Nasldor qo‘ylar urchitishni rivojlantirish oldindan tuzilgan plan asosida olib boriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirov P.S.- Genetika va biotexnologiya asoslari. Elektron darslik.

Samarqand- 2006.

2. Nosirov U.N., G‘.U.Nosirov, T.U.Nosirov- Chorvachilikda klassik va zamонавиу seleksiya usullari. Toshkent. 2008.